dimgi yozuvlar qatorida bo‘lgan, va hozirga kunda ushbu ro‘yxatdan chiqarilgan. Aytish joizki, ularning tuzilishi va grafik xususiyatlari bir-biridan katta farq qiladi. O‘rxun-Enasoy yozuvi asosan fonetik alifboli tizimda bo‘lsa, mayya yozuvi logografik va sillabik elementlardan iborat bo‘lgan iyerografik tizimdir.

Xulosa. Asli britaniyalik, lekin ilmiy faoliyati, izlanishlarining asosiy qismini AQSHda olib borgan eng taniqli mayyashunos, arxeolog olim Jon Erik Sidney Tompson (1898–1975) va uning shogirdlari mayya yozuvlarini diniy-ramziy va ideografik deb hisoblagan bo‘lsalar, yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida mayya yozuvlarini chuqur o‘rgangan, rus olimi Yuriy Knorozov esa ularni fonetik xususiyatga ega ekanligini ilmiy tadqiqotlar asosida isbotlab bergan. O‘z davrining eng mashhur olimi, Tompson mayya tamaddunini o‘rganishga 50 yilga yaqin (1920–1970) vaqtini sarflagan va Markaziy Amerikadagi Gonduras, Meksika, Gvetemala, Beliz kabi davlatlarda ko‘plab arxeologik hududlarda ishlab, stellalar, yozuvlar va iyerogliflardan nusxalar olgan hamda kataloglashtirgan, mayya taqvimlarini o‘rgangan, iyerogliflarni tizimlashtirishga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rasatadiki, O‘rxun-Enasoy bitiklari va mayya yozuvlarini deshifrovka qilish muhim ilmiy ko‘rsatkich sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Юрий Кнорозов. Письменность индейцев майя. Москва, изд. Академии наук, 1963, 662 с.
(2). Юрий Кнорозов. Иероглифические рукописи майя. Л., “Наука”, 1975, 272 с.
(3). Николай Ядринцев. Отчет о путешествии в Орхунскую долину. С–П., 1891, 54 с.
(4). Vilhelm Thomsen. Insciptions de L’Orkhon dechiffrees. Helsingors, Societe Finno-Ougrienne. 1896, 220 с.
(5). Василий Радлов. Древнетюркские надписи Монголии. СПб., 460 с.

Abidova Roxatoy Xudayberganovna (UrDU, f.f.f.d., dotsent; roxatoy.a@urdu.uz)

NUTQIY AKT NAZARIYASI VA UNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutqiy akt nazariyasining pragmalingvistik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy akt tushunchasi, uning asosiy komponentlari – lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya hamda ularning kommunikativ jarayondagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, nutqiy birliklarning faqat grammatik emas, balki pragmatik jihatdan ham tahlil qilinishi zarurligi asoslab beriladi. Ish natijalari tilning funksional mohiyatini ochib berish hamda samarali muloqot mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, pragmalingvistika, lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, kommunikativ vaziyat, nutq faoliyati, til funksiyasi, pragmatik ma’no, kommunikativ maqsad.*

ТЕОРИЯ РЕЧЕВОГО АКТА И ЕГО ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье анализируются прагмалингвистические основы теории речевых актов. Рассматриваются понятие речевого акта, его основные компоненты – локуция, иллокуция и перлокуция, а также их роль в коммуникативном процессе. Особое внимание уделяется необходимости анализа языковых единиц не только с грамматической, но и с прагматической точки зрения. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию функциональной природы языка и механизмов эффективной коммуникации.*

Ключевые слова: *речевой акт, прагмалингвистика, локуция, иллокуция, перлокуция, коммуникативная ситуация, речевая деятельность, функция языка, прагматическое значение, коммуникативная цель*

SPEECH ACT THEORY AND ITS PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS

Annotation. *This article analyzes the pragmalinguistic foundations of speech act theory. The study examines the concept of speech acts, their main components locution, illocution, and perlocution and their role in the communicative process. It also emphasizes the importance of analyzing linguistic units not only from a grammatical perspective but also from a pragmatic one. The findings contribute to a deeper understanding of the functional nature of language and the mechanisms of effective communication.*

Keywords: *speech act, pragmalinguistics, locution, illocution, perlocution, communicative situation, speech activity, language function, pragmatic meaning, communicative intention.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilning faqat strukturaviy jihatlarini emas, balki uning funksional va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, pragmalingvistika yo‘nalishi doirasida til birliklarining real nutq jarayonidagi qo‘llanishi, ularning so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi

nazardan, nutqiy akt nazariyasi tilshunoslikning muhim va dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Lisoniy muloqot tizimi nutq subyekti nuqtai nazaridan tadqiq qilinganda, e'tibor nutqiy akt turlarining mazmuni, diskurs tuzilishida muloqot maqsadining o'rni, tagma'no ning ifoda topishi, pressuppozitsiya va muloqot ishtirokchilarining mental qobiliyati kabi hodisalarga qaratiladi.[1]

Til inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik munosabatlarni tashkil etuvchi murakkab tizim hisoblanadi. Inson nutqi orqali nafaqat borliq haqidagi bilimlarni ifodalaydi, balki muayyan harakatlarni amalga oshiradi, boshqalarga ta'sir ko'rsatadi, ularning xatti-harakatlarini boshqaradi hamda kommunikativ maqsadlariga erishadi. Aynan shu jihat nutqiy akt nazariyasining mohiyatini tashkil etadi, ya'ni, nutq bu faqat ma'no ifodalovchi birlik emas, balki muayyan ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi vositadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nutqiy aktlarning lingvopragmatik nazariyalari ingliz tilshunoslari J.Syorl, J.Ostin, N.Homski, J.Lich, B.Frazer tadqiqotlaridagi akt tushunchasi va atamasi borasidagi fikrlari hamda tilshunoslar M.M.Baxtin, A.G.Berdnikova, A.V.Bondarko, I.N.Borisova, V.V.Dementev, K.A.Dolinin, M.N.Kojina, Y.V.Komleva, A.Vejbitska, R.Ratmayr, G.Xeld[2] larning janr masalasidagi qarashlariga tayanadi.

Mazkur tadqiqot ishida nutqiy akt nazariyasining pragmalingvistik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Jumladan, nutqiy akt tushunchasining nazariy talqini, uning tarkibiy qismlari – lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, nutqiy aktlarning asosiy turlari, ularning funksional xususiyatlari hamda turli kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo'lish shakllari keng yoritiladi. Tadqiqot davomida nutqiy aktlarning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi, kontekstga moslashuvchanligi va pragmatik ma'nolarni shakllantirishdagi o'rni alohida e'tibor markazida bo'ladi.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidantashkil topishini barcha pragmalingvistlar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir.[3] Ushbu ishda nutqiy aktlarning kommunikativ jarayondagi samaradorligi, ya'ni, so'zlovchining niyati va tinglovchining uni qabul qilish darajasi o'rtasidagi munosabat ham tahlil qilinadi. Chunki har qanday nutqiy faoliyat faqat grammatik to'g'rilik bilan emas, balki pragmatik moslik bilan ham belgilanadi. Shu bois nutqiy aktlarni o'rganish tilning real qo'llanish mexanizmlarini chuqur anglash, samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqish hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik, stilistik, struktur-semantik va lingvomadaniy tahlil hamda antroposentrik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

---

[1] Шахриёр Сафаров. Прагмалингвистика. Тошкент, "Фан", 2010, 75-bet.

[2] Searle J.R. The classification of illocutionary acts. Language in Society 5 (1). 1976, p. 1–23; Остин Дж.Л. Слово как действие. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI, М., "Прогресс", 1986, с. 83–91; Chomsky.N. Language and Mind. Published in the United States of America by Cambridge University Press. New York, 2006, p. 186; Leech G.N. Principles of Pragmatics. N.Y., Longman, 1985, 250 p; Fraser B. Perspectives on Politeness. Journal of Pragmatics, 1990, № 14, p. 219–236; Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Бахтин М.М. Собр. соч., М., Русские словари, 1996, т. 5. Работы 1940–1960 гг. с.159–206; Бердникова А.Г. Речевой жанр благодарности. Когнитивный и семантико-прагматический аспекты. Дис. ...кандидата филол. наук, Новосибирск, 2005, 224 с; Бондарко А.В. Опыт лингвистической интерпретации соотношения системы и среды. "Вопросы языкознания", 1985, № 1, с. 13–23; Борисова И.Н. Русский разговорный диалог: проблема интегративности. Дис. … доктора филол. наук, Екатеринбург, 2001, 430 с; Дементьев В.В. Типология жанров фатического общения. Функционирование языковых единиц в разных формах речи. Саратов, 1995, с. 73–78; Долинин К.А. Речевые жанры как средство организации социального взаимодействия. Жанры речи. Вып. 2, Саратов, 1999, с. 7–3; Кожина М.Н. Речевой жанр и речевой акт (некоторые аспекты проблемы). Жанры речи. Вып. 2, Саратов, 1999, с. 15–23; Комлева Е.В. Соотношение понятий «речевой жанр» и «речевой акт» (на материале немецких апеллятивных текстов). Теория и практика общественного развития. 2011, № 5, с. 296–300; Вежбицкая А. Антология речевых жанров. М., "Лабиринт", 2007, с. 68–80; Ратмайр Р. Прагматика извинения. Сравнительное исследование на материале русского языка и русской культуры. Пер. с нем. Е.Араловой. М., Языки славянской культуры, 2003, 272 с; Held G. Verbale Höflichkeit: Studien zur linguistischen Theorienbildung und empirische Untersuchung zum Sprachverhalten französischer und italienischer Jugendlicher in Bitt- und Dankessituationen. Gudrun Held. Tübingen, Narr, 1995, 486 s.

[3] Abidova R.X. Minnatdorchilik nutqiy aktining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida) PhD dissertatsiyasi. Urganch, 2024, 81-bet.

Nutqiy akt nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda tilning funksional mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asoslardan biri sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy struktur tilshunoslik asosan til birliklarining formal tuzilishi va ularning tizim ichidagi o'rnini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, nutqiy akt nazariyasi tilni real kommunikativ faoliyat kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv tilni statik tizim sifatida emas, balki dinamik, maqsadga yo'naltirilgan va ijtimoiy jihatdan belgilangan faoliyat turi sifatida talqin etadi. Shu bois nutqiy akt nazariyasi pragmalingvistika, diskurs tahlili hamda kommunikativ tilshunoslik kabi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolada nutqiy akt tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanish jarayoni hamda asosiy komponentlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Xususan, nutqiy akt nazariyasining paydo bo'lishiga zamin yaratgan falsafiy va lingvistik qarashlar, uning keyingi rivoj bosqichlari hamda turli ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Har bir nazariy qarash nafaqat tavsifiy, balki izohlovchi xarakterda bayon qilinib, real nutqiy vaziyatlardan olingan misollar orqali asoslanadi. Bu esa nazariyaning amaliy ahamiyatini ochib berish va uning kommunikativ jarayondagi funksional samaradorligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Nutqiy akt tushunchasi umumiy ma'noda so'zlovchining ma'lum kommunikativ vaziyatda tinglovchiga yo'naltirilgan, maqsadga muvofiq tashkil etilgan nutqiy faoliyatini anglatadi. Bunda nutq jarayoni oddiy axborot uzatish bilan cheklanib qolmay, balki muayyan ijtimoiy harakatni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, har bir nutqiy birlik o'zida nafaqat semantik ma'noni, balki pragmatik yuklamani ham mujassam etadi. Shu jihatdan qaralganda, nutq – bu faqat "gapirish" emas, balki "harakat qilish"dir.

Nutqiy akt jarayonida til birliklari ko'p qatlamli funksiyani bajaradi. Bir tomondan, ular borliq haqidagi ma'lumotni ifodalasa, ikkinchi tomondan, so'zlovchining niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, buyruq, iltimos, maslahat, ogohlantirish yoki va'da kabi nutqiy shakllar orqali so'zlovchi tinglovchining xatti-harakatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa nutqiy aktning ijtimoiy va psixologik jihatdan ham muhim hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, nutqiy aktni to'g'ri anglash uchun kommunikativ vaziyat, kontekst, ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi, madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Chunki bir xil lingvistik shakl turli vaziyatlarda turlicha pragmatik ma'no kasb etishi mumkin. Demak, nutqiy aktni faqat til birliklari darajasida emas, balki kengroq – kommunikativ faoliyat doirasida tahlil qilish zarur.

Nutqiy akt nazariyasi tilning inson faoliyatidagi real funksiyasini, ya'ni, uning ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, muloqotni boshqarish va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu sababli mazkur nazariya nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalar – ta'lim, tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya va nutq etiketi tadqiqotlarida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Nutqiy akt mohiyati tilning funksional xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tilni faqat formal tizim sifatida emas, balki inson faoliyatining muhim kommunikativ vositasi sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklari endilikda izolyatsiyalangan, kontekstdan uzilgan holda emas, balki real nutq jarayonida bajaradigan vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. Shu jihatdan, har bir nutqiy birlik – fonema, so'z, so'z birikmasi yoki gap – muayyan kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qiladi va aynan shu vazifa uning haqiqiy mohiyatini belgilaydi.

Nutqiy akt nazariyasi doirasida asosiy e'tibor til birliklarining qanday ma'no ifodalashiga emas, balki ular orqali qanday amal bajarilishiga qaratiladi. Ya'ni, nutq jarayonida so'zlovchi til vositalari yordamida nafaqat axborot uzatadi, balki ma'lum maqsadni amalga oshiradi: u buyuradi, iltimos qiladi, maslahat beradi, ogohlantiradi yoki o'z hissiy holatini ifodalaydi. Shu bois har qanday nutqiy birlik ikki qatlamli – semantik va pragmatik tabiatga ega bo'lib, uning to'liq talqini faqat shu ikki jihat birgalikda ko'rib chiqilgandagina mumkin bo'ladi.

Masalan, oddiy ko'rinishga ega bo'lgan gaplar ham turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha ma'no va funksiyani ifodalashi mumkin. Bir xil lingvistik shakl turli kontekstlarda buyruq, iltimos yoki hatto kinoya sifatida talqin qilinadi. Bu holat nutqiy aktning kontekstga bog'liqligini va uning dinamik xarakterini yaqqol namoyon etadi. Demak, nutqiy birliklarning haqiqiy ma'nosi ularning grammatik tuzilishidan ko'ra ko'proq kommunikativ vaziyat, ishtirokchilarning o'zaro munosabati, nutqning maqsadi va madaniy omillar bilan belgilanadi.

Shu sababli nutqiy aktni faqat grammatik birlik sifatida talqin qilish yetarli emas. Uni kengroq – pragmatik hodisa sifatida o'rganish zarur. Pragmatik yondashuv til birliklarining real qo'llanishini, ularning kommunikativ samaradorligini hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini

aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, nutqiy aktning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan so‘zlovchining niyati bilan tinglovchining uni to‘g‘ri anglay olishi o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liq bo‘lib, bu esa tilning ijtimoiy va psixologik jihatlarini ham hisobga olishni talab qiladi.

Mazkur yondashuv tilni real kommunikatsiya jarayonida, ya’ni, tabiiy nutq sharoitida o‘rganishga keng imkoniyat yaratadi. Natijada nutqning statik emas, balki dinamik, o‘zgaruvchan va vaziyatga moslashuvchan tabiatga ega ekanligi ochib beriladi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy tilshunoslikda funksional va antropotsentrik yondashuvlarning ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Nutqiy akt mohiyatini shu tarzda anglash tilni chuqurroq o‘rganish, samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish hamda madaniyatlararo muloqotni takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqiy akt nazariyasiga ko‘ra, har qanday nutqiy faoliyat uch asosiy komponentdan – lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiyadan tashkil topadi. Ushbu uchlik nutq jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini ochib berishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Mazkur komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birgalikda nutqiy aktning to‘liq kommunikativ qiymatini shakllantiradi. Shu sababli nutqni chuqur tahlil qilish jarayonida har bir bosqich alohida va birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur.

Lokutsiya nutqiy aktning formal, ya’ni lingvistik jihatini ifodalaydi. U gapning fonetik, leksik va grammatik tuzilishini o‘z ichiga oladi hamda nutqning “aytilgan” qismini anglatadi. Boshqacha aytganda, lokutsiya – bu til vositalari orqali shakllangan aniq lingvistik birlikdir. Masalan, “Derazani yop” gapini olaylik. Bu gapning lokutiv darajasi uning buyruq maylidagi grammatik tuzilishi, fe’lning imperativ shaklda qo‘llanishi hamda so‘zlarning sintaktik tartibi bilan belgilanadi. Ushbu bosqichda gapning faqat formal tuzilishi va lug‘aviy ma’nosi tahlil qilinadi, ya’ni u qanday shaklda ifodalangani aniqlanadi.

Illokutsiya esa nutqiy aktning markaziy komponenti bo‘lib, unda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va niyati mujassam bo‘ladi. Aynan illokutiv kuch nutqiy birlikning qanday maqsadda qo‘llanilganini belgilaydi. Yuqoridagi “Derazani yop” misolida illokutsiya – bu buyruq berish yoki iltimos qilish niyatidir. Biroq mazkur gap turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar bu gap o‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga aytilsa, u aniq buyruq sifatida talqin qilinadi; do‘stlar o‘rtasida esa u yumshoq iltimos yoki taklif sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, illokutsiya nafaqat lingvistik shaklga, balki kontekst, ijtimoiy munosabatlar va nutq vaziyatiga ham bog‘liqdir.

Perlokutsiya nutqiy aktning yakuniy bosqichi bo‘lib, u tinglovchiga ko‘rsatilgan real ta’sir natijasini ifodalaydi. Ya’ni, bu bosqichda nutqning tinglovchi tomonidan qanday qabul qilingani va qanday reaksiya yuzaga kelgani muhim ahamiyat kasb etadi. Yana yuqoridagi misolga murojaat qilsak, “Derazani yop” degan gap tinglovchini haqiqatan ham derazani yopishga undashi mumkin – bu muvaffaqiyatli perlokutiv ta’sirdir. Ammo ayrim hollarda tinglovchi bu gapni e’tiborsiz qoldirishi yoki noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin, bu esa perlokutiv natijaning kutilgan darajada amalga oshmaganini ko‘rsatadi.

Mazkur uch komponentni yanada aniqroq tushunish uchun boshqa bir misolni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, “Bu yer issiq ekan” gapini olaylik. Lokutiv jihatdan bu oddiy darak gap bo‘lib, muhitning haroratiga oid axborotni ifodalaydi. Biroq illokutiv darajada ushbu gap yashirin iltimos yoki taklifni anglatishi mumkin, ya’ni, so‘zlovchi aslida “derazani oching” degan niyatni bildirayotgan bo‘ladi. Perlokutiv bosqichda esa tinglovchi bu yashirin ma’noni anglab, tegishli harakatni amalga oshirishi yoki aksincha, faqat axborot sifatida qabul qilib, hech qanday reaksiya bildirmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar. Shu tariqa, nutqiy aktning lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya komponentlari nutq jarayonining turli darajalarini ifodalaydi va ularning har biri kommunikativ muvaffaqiyatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu uch bosqichni kompleks tahlil qilish orqali nutqning nafaqat lingvistik, balki pragmatik, ijtimoiy va psixologik jihatlari ham ochib beriladi. Bu esa nutqiy faoliyatning to‘liq mexanizmini anglash, shuningdek, samarali va maqsadga muvofiq kommunikatsiyani tashkil etish uchun zarur nazariy asosni yaratadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, nutqiy akt nazariyasi tilning nafaqat strukturaviy, balki funksional va pragmatik mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Nutq jarayoni lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya kabi uch asosiy komponent orqali amalga oshib, so‘zlovchining niyati va tinglovchiga ko‘rsatilgan ta’sirni ifodalaydi. Shuningdek, nutqiy aktlarning mazmuni kommunikativ vaziyat, kontekst va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Shu bois mazkur nazariya tilning real qo‘llanishini va samarali muloqot mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Шахриёр Сафаров. Прагмалингвистика. Тошкент, “Фан”, 2010.

(2). Abidova R.X. Minnatdorchilik nutqiy aktining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) PhD dissertatsiyasi, Urganch, 2024.
(3). Searle J.R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.
(4). Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
(5). Levinson S.C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
(6). Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.
(7). Leech G.N. (1983). Principles of Pragmatics. Longman.
(8). Grice H.P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole P., Morgan J.L. (eds.), Syntax and Semantics, vol. 3. Academic Press.

Raximboyeva Xulkar Gayratovna (Yangi Asr universiteti, PhD, dotsent; hulkar.rahimboeva@gmail.com),
Quronboyeva Mashxura Marimboy qizi (Urganch RANCH Texnologiya universiteti, 1-kurs magistratura talabasi; quronboyeva.mashxura@icloud.com)

GAPLARNING TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gaplarning tipologik tahlili masalalari ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida tizimli va keng qamrovli tarzda yoritilgan. Tadqiqotda tipologiya lingvistik metod sifatida talqin qilinib, uning sintaktik birliklarni, xususan gaplarni o‘rganishdagi nazariy va metodologik imkoniyatlari asoslab berilgan. Ish jarayonida gaplarning universal sintaktik xususiyatlari, jumladan, predikativlik, modallik va kommunikativ yo‘naltirilganlik kabi umumiy belgilar aniqlanib, ularning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanish vositalari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada gaplarning tilga xos xususiyatlari alohida ko‘rib chiqilib, ingliz va o‘zbek tillarida gap tuzilishi, so‘z tartibi, grammatik munosabatlar, zamon-aspekt kategoriyalarining ifodalanishi hamda subyektning sintaktik mavqeyi kabi parametrlar qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tadqiq etilgan. Ingliz tilining analitik tabiati va o‘zbek tilining agglutinativ xususiyati gap qurilishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniq misollar orqali ochib berilgan. Bundan tashqari, sintaksis sohasida olib borilgan qiyosiy-tipologik tadqiqotlar tahlil qilinib, ingliz va o‘zbek tillari gap tipologiyasiga oid avvalgi ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari va natijalari umumlashtirilgan. Tadqiqotda zamonaviy funksional va kognitiv yondashuvlar asosida gap tuzilishidagi farqlar inson tafakkuri, diskurs ehtiyojlari va kommunikativ strategiyalar bilan bog‘liq holda izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *tipologiya, gap, sintaksis, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, universal xususiyatlar.*

Рахимбаева Хулкар Гайратовна (Университет «Янги Аср», PhD, доцент; hulkar.rahimboeva@gmail.com),
Куронбоева Машхура Маримбой кизи (Ургенчский Технологический университет RANCH, магистрант 1 курса; quronboyeva.mashxura@icloud.com)

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье вопросы типологического анализа предложений рассматриваются системно и всесторонне на материале английского и узбекского языков. В исследовании типология интерпретируется как лингвистический метод, обосновываются её теоретические и методологические возможности в изучении синтаксических единиц, в частности предложений. В ходе работы выявляются универсальные синтаксические характеристики предложений, такие как предикативность, модальные отношения и коммуникативная направленность, а также проводится их сравнительный анализ с точки зрения способов выражения в английском и узбекском языках. Кроме того, в статье отдельно рассматриваются специфические особенности языков, исследуются параметры, такие как структура предложения, порядок слов, грамматические отношения, выражение категорий времени и аспекта, а также синтаксический статус субъекта в английском и узбекском языках на основе сравнительно-типологического подхода. На конкретных примерах показано, как аналитический характер английского языка и агглютинативная природа узбекского языка влияют на построение предложений. Также анализируются сравнительно-типологические исследования в области синтаксиса, обобщаются основные направления и результаты предыдущих научных работ, посвящённых типологии предложений в английском и узбекском языках. В рамках современных функциональных и когнитивных подходов различия в структуре предложений объясняются с учётом человеческого мышления, дискурсивных потребностей и коммуникативных стратегий.*

Ключевые слова: *типология, предложение, синтаксис, сравнительный анализ, английский язык, узбекский язык, универсальные характеристики.*